

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, III-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

## Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI .....	10
<b>I. R. Berdikulova</b>	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI .....	14
<b>Onorboev Sh.M.</b>	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
<b>Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna</b>	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
<b>Rahimova Volida Karim qizi</b>	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
<b>Nigmatjonov Sardor Abdumannovich</b>	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
<b>Дониёрова Зухрабону Алишер кизи</b>	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
<b>Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna</b>	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
<b>Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira</b>	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
<b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
<b>Салихова Алина Муратовна</b>	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI .....	73
<b>Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon</b>	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
<b>Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon</b>	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI .....	83
<b>Sodiqova Nigora</b>	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
<b>Muminov Bekzod Polvonovich</b>	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА .....	95
<b>Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна</b>	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
<b>G'aniyev Elyor Sobirjonovich</b>	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY .....	110
<b>Damirjon Nurmatovich Soliyev</b>	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
<b>Джумаев Аскар Хайдарович</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
<b>Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	127
<b>Muminov Obidjon Odilovich</b>	
MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI.....	135
<b>Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich</b>	
КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ.....	141
<b>Джуманов А.А.</b>	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO'P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH.....	152
<b>V.I. Isroilov, V.B. Ibragimov</b>	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ.....	158
<b>Мамутова Айгуль Калмурзаевна</b>	
QUYOSH NOVUZLARIDA SODIR BO'LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O'LCHAMLI MATEMATIK MODEL.....	165
<b>M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov</b>	
ФАКТОРЫ, СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	172
<b>Алиев Али Комил угли, Каримова А.</b>	
ISTE'MOL KREDITLARINING ANAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	176
<b>S. Qayumov, M. Qurbonov, A. S. Abduraxmanov</b>	
AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIK DARAJASINI OMILLI TAHLILI.....	179
<b>Raximov Azamat Hamroqulovich</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIY TAJRIBASI.....	183
<b>Ozodova Farida Zarif qizi</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЗОЛОВОАЛЮТНЫМИ РЕЗЕРВАМИ И ВНЕШНИМ ДОЛГОМ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТНИКОВ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	187
<b>Зайналов Жахонгир Расулович, Алиева Сусанна Сейрановна</b>	
GENERATIV AI ASOSIDAGI ALGORITMIK NARX BELGILASH MEKANIZMLARI: RAQOBAT IQTISODIYOTIDA MONOPOLLASHUV XAVFI, VANO BO'YICHA SOZLASHUV MUAMMOLARI VA ANTIMONOPOL TARTIBGA SOLISH.....	192
<b>Kendjayeva Dildora Xudayberganovna, Abdumannopova Shirin Olamgir qizi</b>	
РАЗВИТИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	200
<b>Тураева А. И.</b>	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN KNOWLEDGE DELIVERY MODELS.....	204
<b>Daminova Barno Esanovna, Pardayeva Sevinch Sherzod qizi, Inoqov Jasur Komil o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И СТАРТАПОВ.....	208
<b>Ибрагимов Гайратжон Артикович</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA IJTIMOY-IQTISODIY ADOLAT QOIDALARI.....	216
<b>Alimov Nasimjon Hoshimovich</b>	



ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	221
<b>Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна</b>	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISH USULLARI.....	228
<b>Daminova Barno Esanovna, Abduraimova Aziza Erkin qizi, G'ofurova Anora Zafar qizi</b>	
XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS)GA O'TISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINING MUAMMOLARI.....	233
<b>Ismailov Naufal Nadirovich</b>	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'YI INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	241
<b>Eshqobulova Charos O'roq qizi</b>	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING.....	245
<b>Begzod Nishanov</b>	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SUG'URTA (TAKAFUL) TIZIMINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI: NAZARIY-QIYOSIY TAHLIL.....	251
<b>Abdullayev Azamat Akbar o'g'li</b>	
RAQAMLI MARKETING VA MILLIY BRENDLASH ORQALI TURIZM EKSPORTINI OSHIRISH: YAQIN SHARQ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN YO'L XARITASI.....	259
<b>Bekmurodova F.A., Tolibova Aziza</b>	
MEVA-SABZAVOTCHILIK QUYI MAJMUASIDA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	263
<b>Murodov Sherzodbek Murod o'g'li</b>	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA.....	268
<b>Farida Nishanova</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI.....	274
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ДИНАМИКИ ТУРИСТИЧЕСКИХ ПОТОКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (2010–2024 ГОДЫ).....	278
<b>Бекимбетова Мария Махсетуллаевна</b>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I ZANJIRIGA INTEGRATSIYALASHNING FISKAL VA IQTISODIY SAMARADORLIGI: IXTIYORIY O'TISH MEKANIZMINING MIQDORIY VAHOLANISHI.....	282
<b>Urazmatov Jonibek Musurmanovich</b>	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	287
<b>Xasanova Yulduz Kayumovna</b>	
ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ДОХОДОВ РАБОТНИКОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....	291
<b>Рустамова Феруза Камоловна, Исхакова Сарвар Аюбовна</b>	
ISSIQXONA TIPLI QUYOSH QURITGICHINING ENERGETIK, EKOLOGIK VA IQTISODIY TAHLILI.....	296
<b>B.A. Hikmatov</b>	
ASSESSMENT CRITERIA FOR THE EFFECTIVENESS OF DISTANCE EDUCATION IN THE EDUCATIONAL SYSTEMS OF DEVELOPED COUNTRIES.....	301
<b>Umurzakova Gulyor Eshnazar qizi</b>	
KO'P FUNKSIYALI PV-TROMBE DEVORIDA KONSTRUKTIV YECHIMLAR, HAVO FILTRATSIYASI VA STERILIZATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	307
<b>Rahimova Volda Karim qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI, MAVJUD MUAMMOLARI VA ULARNI BARATARAF ETISH YO'LLARI.....	312
<b>Jiyanov Laziz Najimovich</b>	



KNOWLEDGE ASSESSMENT AND RESULTS VISUALIZATION BASED ON TEXT MINING IN E-LEARNING PLATFORMS .....	317
<b>Laziz Sayimovich Safarov</b>	
THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMMUNICATION CULTURE OF FUTURE TEACHERS.....	321
<b>Dilnoza Jorayevna Kuvatova</b>	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY KOMPETENSIYALARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI .....	325
<b>Sharipov Shahriyor Shamsiddin o'g'li</b>	
АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОЙ СФЕРЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	329
<b>Бабаева Г. Я.</b>	
О'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YOSHLARNING O'RNI.....	338
<b>Hamidova Shahzoda Odiljanovna</b>	
DIGITAL ECONOMY IN THE CONDITIONS OF CURRENT LEVEL AND DYNAMICS OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT .....	343
<b>Ibodullayeva M.S.</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINING AUDITI .....	349
<b>Almardanov Muxamadi, Bolibekov Baxtiyor, Safarov Javohir</b>	
EKOLOGIK OMILLAR ASOSIDA HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING FAZOVIIY-AXBOROT MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VA OROLBO'YI MISOLIDA) .....	355
<b>Reymova Gulmira Polatovna</b>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIKLARIDAGI SUBYEKT VA PREDIKAT PARADIGMASI, ULARNING UMUMIY VA XUSUSIY JIHATLARI.....	362
<b>Azamova Gulruh Akbar qizi</b>	
MINTAQALARDA IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINI STATISTIK MONITORING QILISH VA BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	366
<b>M.Sh. Raximova</b>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISH VA UNING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	370
<b>Eshniyozov Asadbek Abdinazar o'g'li</b>	



# O'ZBEKISTON SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISH VA UNING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

**Eshniyozov Asadbek Abdinazar o'g'li**

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti  
mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [asadbek\\_eshniyozov@tues.uz](mailto:asadbek_eshniyozov@tues.uz)

ORCID: 0009-0007-9921-8614

**Annotatsiya.** Maqolada klasterlarning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va ularning mohiyati yoritilgan. O'zbekiston sharoitida paxtachilik klasterlarini tashkil etish, ularning rivojlanish istiqbollari o'rganilgan hamda ushbu yo'nalish bo'yicha ilmiy xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** klaster, mahalliyashtirish, import, eksport, sanoat.

**Abstract.** This article examines the role and significance of clusters in the national economy. It analyzes the establishment of cotton-textile clusters in the conditions of Uzbekistan and explores their development prospects. The study also presents scientific conclusions and recommendations regarding the effective organization and further development of cluster systems.

**Keywords:** cluster, localization, import, export, industry.

**Аннотация.** В статье раскрываются сущность кластеров и их роль в национальной экономике. Исследованы вопросы организации хлопково-текстильных кластеров в условиях Узбекистана, а также перспективы их дальнейшего развития. По результатам исследования представлены научные выводы и рекомендации по эффективной организации и совершенствованию кластерной системы.

**Ключевые слова:** кластер, локализация, импорт, экспорт, промышленность.

## KIRISH

O'zbekiston dunyoda yirik paxta yetishtiruvchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, xususan, paxtachilik tarmog'i muhim o'rin tutadi. Paxta mahsulotlari savdosi esa mamlakatning eksport salohiyatini oshirish va valyuta tushumlarini shakllantirishda muhim manbalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Jahonda moliyaviy-iqtisodiy jarayonlar murakkablashib, raqobat kuchayib borayotgan hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining muhim eksport mahsulotlaridan biri hisoblangan paxta tolasi qiymatini oshirish, uni chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulot sifatida realizatsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mahalliy tayyor mahsulotlar hajmini ko'paytirish, eksportni kengaytirish hamda paxta tolasi asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida klaster tizimiga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bilan birga, paxta xomashyosini yetishtirish, sotish va qayta ishlash tizimida bozor mexanizmlarini joriy etish, avvalo, xomashyo yetishtiruvchilarning moddiy manfaatdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda jahon tajribasiga asoslangan holda klasterlarni qishloq xo'jaligi iqtisodiyotiga joriy etish amaliyoti boshlangan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatning importga bog'liqligini bosqichma-bosqich kamaytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va mahalliyashtirish orqali barqaror o'sishni ta'minlash hamda eksport salohiyatini oshirishdan iborat. Boshqacha aytganda, mamlakat paxta tolasini xomashyo sifatida eksport qilishdan ko'ra, uni chuqur qayta ishlab, tayyor mahsulot sifatida tashqi bozorlarga yo'naltirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasida keng turdagi sifatli to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'tgan davr mobaynida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish uchun zarur huquqiy baza hamda qulay shart-sharoitlar shakllantirilib, tegishli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqildi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat va kompaniyalarga nisbatan “klaster” tushunchasi 1990-yilda amerikalik iqtisodchi M. Porter tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Porter (2005) fikricha, klaster — o‘zaro bog‘liq kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar, tegishli tarmoqlardagi firmalar hamda ularning faoliyatiga aloqador tashkilotlarning muayyan sohalarda geografik jihatdan zich joylashgan guruhi bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida ham raqobatlashadi, ham hamkorlik qiladi.

Rudneva (2007) esa bu borada quyidagicha ta‘rif beradi: “Klaster — geografik jihatdan mahalliyashtirilgan, o‘zaro bog‘liq kompaniyalar, uskunalar, komponentlar, maxsus xizmatlar, infratuzilma, tadqiqot institutlari, universitetlar, bir-birini to‘ldiruvchi ayrim kompaniyalar hamda butun guruhning raqobatbardosh afzalliklarini mustahkamlovchi boshqa tashkilotlar va yetkazib beruvchilar majmuasidir”.

Rivojlanish darajasi va raqobatbardosh ustunlik manbalarining ahamiyati davlatlar, hududlar va korxonalarining raqobat hamda iqtisodiy o‘shish modellarini rivojlantirish bosqichini belgilaydi. Sanoat korxonalari iste‘molni ta‘minlash va milliy boylikni oshirish uchun asos yaratadi. Shu sababli ularning raqobatbardoshligi bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi (Yegorov, 2006).

Larionova (2007) klaster mohiyatini yanada kengroq izohlaydi: “Klaster — bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, muayyan maqsad yo‘lida birgalikda faoliyat yuritadigan hamda yagona tashkiliy tuzilmaga birlashtirilgan turli tarmoqlardagi xo‘jalik subyektlari majmuasidir. Bir nechta mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektlardan samarali texnologik zanjirlarni shakllantirish strategik jarayon bo‘lib, uni amalga oshirish uzoq muddatli investitsiyalarni talab qiladi. Bunday tizimlar ichki va tashqi omillarning o‘zaro ta‘siri natijasida shakllanishi mumkin. Mazkur aloqalar har bir xo‘jalik yurituvchi subyektga qo‘shimcha iqtisodiy samara keltirishi, yagona tizimni shakllantirish va integratsiyalashgan faoliyatni ta‘minlash uchun rag‘bat yaratishi lozim”.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ilmiy-nazariy yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, unda induksiya va deduksiya, analiz va sintez, taqqoslash hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy-amaliy tadqiqotlar asosida mamlakat iqtisodiyotini klasterlar vositasida rivojlantirish istiqbollari tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, klaster — ma‘lum bir sohada faoliyat yuritadigan, bir-birini to‘ldiruvchi hamda geografik jihatdan yaqin joylashgan kompaniyalar va tegishli tashkilotlar guruhi. Shuningdek, klaster tarkibidagi kompaniyalar ixtisoslashgan resurslardan foydalanish imkoniyati orqali iqtisodiy samaraga erishadi. Klasterlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi, odatda, global bozorga yo‘naltirilgan ommaviy ishlab chiqarish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Shu ma‘noda, klasterlarning rivojlanishi hududni kengroq iqtisodiy makonga aylantirishni talab qiladi.

Porter (2005) fikricha, “klaster chegaralari barcha firmalar, sanoat tarmoqlari va tashkilotlar o‘rtasida gorizontal, vertikal hamda tizimli aloqalar mavjud bo‘lgan holatda mustahkam shakllanishi kerak. Aloqalar zaif bo‘lgan yoki umuman mavjud bo‘lmagan firmalar, ishlab chiqarish subyektlari va tashkilotlar esa klaster chegarasidan tashqarida qolishi mumkin”.

Porter uchta asosiy klaster turini ajratib ko‘rsatadi, ya‘ni:

- mahalliy sanoat korxonalari;
- resurslarga bog‘liq korxonalar, masalan, neft va gaz korxonalari klasterlari;
- klaster tarkibiga kiruvchi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida kasbiy asosda birlashtirilgan korxonalar guruhi. Ushbu korxonalar o‘z mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda realizatsiya qiladi.

Klasterlarning milliy iqtisodiyotga ta‘siri haqida so‘z yuritganda, AQSH iqtisodiyotida ishbilarmonlik faoliyatining 32 foizdan ortig‘i klaster guruhlariga hissasiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlash mumkin. Shvetsiya iqtisodiyotida esa klasterlarda ishlaydiganlar aholining 39 foizini tashkil etadi. Mazkur tarmoqlarda mehnat unumdorligi o‘rtacha ko‘rsatkichdan 44 foiz yuqori ekanligi qayd etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida qayta ishlovchi korxonalar bilan fermer xo‘jaliklari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta‘minlash orqali paxta xomashyosini chuqur qayta ishlashni tashkil etish, qishloq joylarda yengil sanoat tarmog‘ini yanada rivojlantirish, mahsulot sifatini oshirish hisobiga qo‘shimcha qiymat yaratish, tayyor eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi 53-sonli qarori<sup>1</sup> hamda 2018-yil 31-martdagi "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 253-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu hujjatlar paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish va ularning faoliyatini takomillashtirishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrda "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5285-son<sup>2</sup> Farmonining o'z vaqtida ijrosini ta'minlash, paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy qilish, shuningdek, paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi hududida joylashgan paxta tozalash korxonalari va paxta tayyorlash punktlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli qarorlar ishlab chiqilgan. Ushbu qarorlar doirasida quyidagi vazifalar belgilab olingan:

a) O'zbekiston Respublikasi Xususiyashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan "O'zpxatasanoat" AJ va "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi bilan birgalikda paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari hamda klasterlari hududida joylashgan 16 ta paxta tozalash korxonasi va 68 ta paxta tayyorlash punkti xatlovdan o'tkazilib, ularning holati baholangan;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrda "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5285-son<sup>3</sup> Farmoni bilan tashkil etilgan paxta-to'qimachilik klasterlarini o'rta muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasi loyihasini ishlab chiqish bo'yicha ishchi komissiya tomonidan o'tkazilgan xatlov natijalari asosida paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari hududida joylashgan paxta tozalash korxonalari hamda paxta tayyorlash punktlarining bino va inshootlarini ularning tashkilotchilariga 5 yil muddatga bo'lib to'lash sharti bilan baholangan qiymatda sotish tavsiya etilgan;

c) paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari tashkilotchilari tomonidan ularning hududida joylashgan paxta tozalash korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan 2018-yilda paxta xomashyosini qaytarib berish va ijara asosida qayta ishlash uchun foydalanish masalalarini paxta tozalash korxonalari aksiyadorlarining umumiy yig'ilishlarida ko'rib chiqish tavsiya etilgan.

Manbalarga tayanadigan bo'lsak, hukumat qarorlari asosida 2018-yil 1-martda O'zbekistonda ilk klaster — "Khantex Cotton" MChJ o'z faoliyatini boshladi.

MChJ loyihasining umumiy qiymati 5,0 mln AQSH dollariga teng bo'lib, shundan korxonaning o'z mablag'lari 0,97 mln AQSH dollarini, "Ipoteka-bank" krediti esa 4,03 mln AQSH dollarini tashkil etgan. Korxonaning mablag'lari qurilish va boshqa xarajatlarga, kredit mablag'lari esa dastgohlarni sotib olishga yo'naltirilgan. Paxta zavodi uchun jahonning ilg'or kompaniyalaridan zamonaviy dastgohlar keltirilgan. Jumladan, paxta tozalash dastgohlari AQSHning "Lummus" kompaniyasidan, delinter dastgohlari esa Hindistonning "Bajaj Steel Industries" kompaniyasidan xarid qilingan. Yaratiladigan ish o'rinlari soni paxta qabul qilish punktlari bilan birga 200 tani tashkil etadi.

Korxonaning kunlik ishlab chiqarish quvvati 110 tonna paxta tolasi va 10 tonna lintni tashkil etadi. Masalan, 29 000 tonna paxta xomashyosi 88 kun davomida to'liq qayta ishlanishi mumkin. Korxonaning faoliyati yetishtirilgan paxta xomashyosini saqlash va dastlabki qayta ishlashga qaratilgan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston hukumati tomonidan klasterlarni tashkil etish bo'yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Paxtachilik klasterlari orqali nafaqat tayyor mahsulot hajmi ortadi, balki quyidagi ijobiy natijalarga ham erishiladi:

Iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi. Bu ishlab chiqarishning izchil rivojlanishi bilan bog'liq iqtisodiy jarayon bo'lib, ishlab chiqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish, hudud rivoji va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

To'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari qisqaradi. Klasterlar natijasida mahsulot tannarxi pasayadi, bu esa raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida sog'lom raqobatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Paxtachilik klasterlari orqali xomashyo va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasidagi transport xarajatlari optimallashtiriladi. Ma'lumki, xomashyoni tashish xarajatlari mahsulot tannarxiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Agar bir hududda xomashyo va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud bo'lsa, bu transport xarajatlarini tejashga, ortiqcha sarflarning oldini olishga hamda mablag'lardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Paxtachilik klasterlari tashkil etiladigan hududlarning iqtisodiy salohiyati va infratuzilmasi rivojlanadi. O'zbekiston hududida paxta yetishtirish bo'yicha yuqori salohiyatga ega hududlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari cho'l va yarim cho'l mintaqalariga to'g'ri keladi. Ushbu hududlarda iqtisodiy salohiyatni oshirish, paxta xomashyosini shu yerning o'zida to'liq qayta ishlash va uni pirovard tayyor mahsulotga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv qo'shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, ish o'rinlarini

1 <https://lex.uz/docs/3527470>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-3459667>

3 <https://lex.uz/uz/docs/-3459667>



ko'paytirish va hudud iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, klasterlar atrofida ishchilar uchun turli qulayliklar yaratiladi, xizmat ko'rsatish shoxobchalari barpo etiladi, biznes markazlari shakllanadi hamda soha bilan bog'liq turizmni rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Hudud aholisining ish bilan bandligi ortadi. Albatta, har qanday ishlab chiqarishdan ko'zlangan maqsad foyda olish bilan bir qatorda, aholining ish bilan bandligini ta'minlashdan ham iboratdir. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholining turmush darajasini oshirish, ularni mavsumiy ishlardan doimiy ish o'rinlariga jalb etish hamda paxtachilik klasteri doirasida ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali hudud aholisining bandligini ta'minlashdan iborat.

Xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonda undiriladigan soliq va boshqa majburiy to'lovlar davlat byudjetiga tushadi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat byudjeti daromadlarining oshishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, paxtachilik klasterlarini tashkil etishda ularni qaysi hududlarda joylashtirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Paxta asosan cho'l va yarim cho'l hududlarda yetishtirilishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan shu hududlarda klasterlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, o'z navbatida, tashqi mehnat migratsiyasini ichki hududlarga yo'naltirishga, klasterlar tashkil etiladigan hududlarni o'zlashtirish va ularni iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi.

2018-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida Qashqadaryo viloyati 381 300 tonna, Buxoro viloyati 318 300 tonna, Surxondaryo viloyati 234 500 tonna va Jizzax viloyati 208 600 tonna paxta yetishtirgan. Ushbu hududlarda paxta yetishtirish uchun yetarli salohiyat mavjud bo'lib, ularda paxtachilikka asoslangan sanoat klasterlarini tashkil etish orqali aholi zich yashaydigan hududlarda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni rag'batlantirish lozim. Bu esa aholi bandligini oshirishga hamda mazkur viloyatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu hududlarda aholi sonining yuqoriligi va qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi ulushi katta ekanini bandlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, 2017-yil yanvar–dekabr oylarida ish bilan band aholining asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (27,3 foiz), sanoat (13,5 foiz), savdo (11,0 foiz), qurilish (9,5 foiz) va ta'lim (8,2 foiz) sohalari hissasiga to'g'ri kelgan. Demak, klasterlarni tashkil etish orqali iqtisodiyotda sanoatning ulushi qishloq xo'jaligi ulushiga nisbatan ortishi va hudud aholisining bandligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Klasterlarni tashkil etishda ularga mos kadrlarni tayyorlash masalasini ham alohida inobatga olish lozim. Har qanday ishlab chiqarishning samarali faoliyati malakali kadrlar bilan bevosita bog'liq. Klasterlar tashkil etilayotgan hududlarda tegishli oliy ta'lim muassasalarining filiallarini tashkil etish orqali ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini shakllantirish mumkin. Ta'lim jarayonining ishlab chiqarish bilan uyg'un holda olib borilishi nazariy bilimlarning amaliyotda mustahkamlanishiga xizmat qiladi hamda malakali kadrlar tayyorlash imkonini yaratadi. Bu esa klasterlar tashkil etilgan hududda faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish korxonalarining talablariga mos mutaxassislarni yetishtirib berishga xizmat qiladi.

Klasterlarni rivojlantirishning muhim jihatlaridan yana biri innovatsiyalarni keng qo'llashdir. Chunki bugungi zamonaviy ishlab chiqarishni innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababli innovatsion yondashuvlar va ilg'or texnologiyalarni joriy etish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

"Paxta — tayyor mahsulot" tamoyiliga asoslangan sanoat klasterini tashkil etish, avvalo, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning samarali realizatsiyasi ta'minlangandagina o'zini oqlaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda yetishtirilayotgan paxta tolasining uchdan bir qismidan ko'prog'i qayta ishlanmoqda. Yaqin yillarda esa uning uchdan ikki qismini qayta ishlash ustuvor maqsad sifatida belgilangan.

Bugungi jahon bozorida trikotaj mahsulotlari bo'yicha sifat bilan bir qatorda brendlar ham alohida ahamiyatga ega. Shu sababli mahsulotlarni sotishda milliy brendlarni shakllantirish masalasini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Mahalliy brendlarni yaratmasdan turib, mahsulot eksportini kengaytirish murakkab jarayon hisoblanadi.

Dunyoda mashhur brendlar ostida ko'plab ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini jahon bozoriga taklif etib kelmoqda. Mamlakatimizda yengil sanoat imkoniyatlari yuqori ekanini e'tirof etgan holda, ushbu sohaning jahon bozori va ichki bozordagi iste'molchilar orasidagi ahamiyatini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hamda mahsulotlar soni va sifatini ko'paytirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki hozirgi kunda mamlakatimiz aholisi ehtiyojlarining ma'lum qismi tabiiy tolali mahsulotlar bilan emas, balki Xitoy va Turkiyada ishlab chiqarilgan sintetik mahsulotlar bilan qoplanayotgani kuzatilmoqda.

Bozorni diqqat bilan o'rganganimizda, ichki bozordagi iste'molchilarning xorijiy brendlar va zamonaviy modaga bo'lgan talabi yuqori ekanini ko'rish mumkin. Xorij mahsulotlarini xarid qiluvchilarning bir qismini brend qiziqtirsa, boshqalarini zamonaviy moda talablari yoki xorijiy sintetik mahsulotlarning mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan tabiiy tolali mahsulotlarga nisbatan arzonligi jalb qilmoqda. Aslida, ushbu talablarni qondirish uchun mamlakatimizda yetarli imkoniyatlar mavjud. Biroq bugungi kunda marketing faoliyatida tajribani yanada oshirish zarurati ichki imkoniyatlarimizni kengroq namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yengil sanoat mahsulotlari sifati jihatidan jahon mahsulotlari bilan raqobatlasha olish imkoniyatiga ega. Ammo iste'molchilarning ushbu mahsulotlar haqidagi tasavvuri va xabardorligini yanada oshirish zarur. Buning uchun, avvalo, mahsulotlarni keng ommaga tanitish lozim. Mahsulotlarimiz sifatli va moda jihatidan raqobatbardosh bo'lishi mumkin, biroq ularni iste'molchilarga samarali yetkazish va bozorda mustahkam o'rin egallash uchun izchil targ'ibot ishlari talab etiladi.

Jumladan, bu jarayonda reklamaning o'rni katta. Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklama xizmatlarining ahamiyati tobora ortib, reklama tadbirkorlikning alohida yo'nalishiga aylanmoqda va maxsus qoidalar hamda qonunlar asosida tashkil etilmoqda. Reklamaga keng e'tibor qarataшимizning sababi shundaki, u mamlakatimizda yengil sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan korxonalar brendini namoyish etish va tanitishda muhim vosita hisoblanadi. Brendlar o'z-o'zidan tanilib qolmaydi, balki maqsadli reklama va marketing faoliyati orqali ommalashadi. Shu sababli yengil sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes vakillari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini tanitishda reklama vositalaridan samarali foydalanishlari lozim.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda keng assortimentdagi yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Biroq ularning bozor talabiga nisbatan ulushini yanada oshirish zarur. Bu esa milliy brend, zamonaviy moda va maqbul narx kabi mezonlarga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni talab etadi. Demak, milliy brendlarni yaratish va ularni reklama orqali keng targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, mamlakatimizda klaster tizimini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Avvalo, tashkil etilayotgan paxtachilik klasterlarini qishloq xo'jaligida paxta yetishtirish salmog'i yuqori bo'lgan hududlarda joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Natijada paxta tolasini shu hududlarning o'zida qayta ishlash imkoniyati kengayadi, yengil sanoat tarmog'i rivojlanadi hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Masalan, Jizzax va Surxondaryo viloyatlari paxtachilik klasterlarini rivojlantirish uchun istiqbolli hududlar qatoriga kiradi.

Shuningdek, ishlab chiqarish va ta'lim integratsiyasini yanada rivojlantirish zarur. Klaster tizimining muhim jihatlaridan biri ham aynan ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro uzviy bog'liqligidir. Ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarining innovatsion texnologiyalar asosida hamkorlik qilishi malakali kadrlar tayyorlash samaradorligini oshiradi va klaster faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ulushi yuqori ekanligini inobatga olsak, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan aholining bir qismi mavsumiy ishlar bilan band bo'lib, doimiy ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyoj mavjud. Klasterlar faoliyatini kengaytirish orqali sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, iqtisodiy faol aholini barqaror ish bilan ta'minlash imkoniyatlari ortadi. Bu esa aholi farovonligini oshirish bilan bir qatorda, hududlarning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, klasterlarning rivojlanishi hududlar o'rtasidagi iqtisodiy faollikni kuchaytiradi, ichki mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi hamda yangi infratuzilma obyektlarini shakllantirishga turtki beradi. Natijada hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi ortib, iqtisodiy rivojlanishning yangi imkoniyatlari yuzaga keladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrda "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5285-son Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-3459667>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-yanvardagi "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 53-son qarori <https://lex.uz/docs/3527470>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 253-son qarori <https://lex.uz/docs/-3607498>
4. Egorov O.I. Zarubejnyy opyt regionalnoy nauki, regionalnoy politiki i territorialnogo razvitiya / O.I. Egorov, O.A. Chigarkina // Region: ekonomika i sotsiologiya. – 2006. – № 1.
5. Larionova N.A. Klasternyy podxod v upravlenii konkurentosposobnostyu regiona / N.A. Larionova // Ekonomicheskii vestnik RGU. – 2007. – № 1. – S. 182.
6. Porter M.E. Konkurensiya / M.E. Porter; per. s angl. – M.: Vilyams, 2005. – 608 s.
7. Rudneva P.S. Opyt sozdaniya strukturnyx klasterov v razvityx stranax / P.S. Rudneva // Ekonomika regiona. – 2007. – № 18.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## 2026. № 6

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)